

XORIJIY TILNI O'RGANISHDA HOZIRGI KUN TALABALARI UCHUN TUG'ILAYOTGAN MUAMMOLAR

A. O'ktamov¹

(Scientific supervisor: Latipov Aziz Akbaralievich)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi kun talablari uchun xorijiy tillarni o'rganishda duch kelayotgan dolzarb muammolar va ularni tahlil qiladi. Maqolada motivatsiya yetishmasligi, amaliyot imkoniyatlarining cheklanganligi va chet tillarini o'qitish metodikasining dunyo standartlariga mos kelmasligi kabi omillarga to'xtab o'tiladi. Shuningdek, keltirilgan muammolarni interaktiv usullar va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillarni o'rganish, talabalar muammolari, o'qitish metodikasi, interaktiv usullar, motivatsiya, til o'rganish amaliyoti, texnologiyalardan foydalanish, o'qitish innovatsiyalari, ta'lim metodlar, zamonaviy o'qitish usullari.

doi: <https://doi.org/10.2024/vs9kbs64>

Kirish

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish va bilishning ahamiyati borgan sayin talab oshib bormoqda. Har bir soha vakili yetuk mutaxassis bo'lishi uchun o'z ona tilidan tashqari, dunyo tillaridan kami 2 - 3 ta bilishi shart. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida hukumat tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi xorijiy til o'rganishda talabalar duch kelayotgan muammolarni bartaraf etishdan iborat

Asosiy qism: Asosiy muammolardan biri bu talabalarda motivatsiyaning yetishmasligi hisoblanadi. Bunda ota-onalarning farzandlarining o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlamasli talabalarining motivatsiyasiga ta'siri yuqori. Chunki ular talabaning bilim olishida katta rol o'ynashadi. Negaki, ular farzandlarining xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirmasa yoki ularni ahamiyatsiz deb hisoblasalar, albatta, bolada motivatsiyaning tushishiga olib keladi. Keyingi jiddiy muammolardan biri amaliyot imkoniyatlarining cheklanganligidir. Ya'ni talabalar o'rgangan tilini amalda qo'lla olmasligidir. Agar talabalar o'rgangan tilini shu tilda gaplashadiganlar bilan muloqot qila olmasalar, bu ularning amaliy mashq qilishlari to'sqinlik qiladi va bu o'z ortidan yana bir qancha muammolarga sabab bo'ladi. Keyingi muammo bu xorijiy tillarni o'rganishda eski va samarasiz metodlardan foydalanish va o'qituvchilar xorijiy tillarni o'rgatishda bir xil metodlardan foydalanishidir. Bunda talabada shu tilga bo'lgan qiziqishning kamayishi olib keladi. Shuningdek, darslar ko'proq nazariy jihatdan yoritilsa, talabalar o'rganayotgan tilni amaliyotda ishlatishdan marhum bo'lishadi. Endi bu muammolarga yechim beradigan bo'lsak talabalarda qiziqishni oshirish uchun interaktiv usullardan foydalanish kerak. Misol uchun "role-playing" usuli, bunda talaba o'rganayotgan tilni amalda namoyish eta oladi. "Peer work" usuli ham talabalarining qiziqishini oshirishi mumkin ya'ni ular bir birining xato kamchiliklarini aytib va tilni qanday rivojlantirish uchun

¹ O'ktamov Azamatjon Azimovich, Third years of students SSFL

maslahatlar bera oladi. Tilni amaliyotda qo‘llash uchun shu tilda gaplashadigan davlatlarga sayohatlar amalga oshirish ham til o‘rganishdagi kamchiliklarni yengishga yordam beradi. Hozirda "work and travel" programmasi ham yurtimizda juda yaxshi amalga qo‘yilgan. Bu programmani yanada rivojlantirish kerak, bu dastur talabalarda qo‘rquv hissini kamaytiradi. Keyingi muammoning yechimi sifatida til o‘rganishda eng so‘nggi va zamonaviy texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish kerak. Hozirgi kunda til o‘rganishda ko‘plab sun‘iy intellektlardan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, Duolingo, Memrise kabi ilovalardan foydalanishni yanada rivojlantirish kerak. Tilni o‘rganishdagi eng katta va samarali yo‘l bu talabalar o‘zlari erisha oladigan, kichik, aniq bo‘lgan maqsadlarni qo‘yishi kerak. Bu yondavush ularga har qanday muvaffaqiyatga erishish eng kichik qadamlardan boshlanishi imkonini beradi.

Xulosa: xorijiy tillarni o‘rganishda talabalaridagi muammolarni hal etishda zamonaviy hamda interaktiv usullardan foydalanish kerak. Shuningdek, talabalar o‘rtasida real muloqot imkoniyatlarni yaratish zarur. Bundan tashqari, ota-onalar va o‘qituvchilar talabalarni xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil rag‘batlantirish ularda bo‘lgan qiziqishini oshirishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Андронкина Н.М. Когнитивно-деятельностный подход к формированию лингвосоциокультурной компетенции обучении немецкому языку студентов языкового вуза. Авторев.дис.док.наук.Спб.:РГПУ,2009.-50с

[2]. Akbaraliyevich L. A. Peculiarities of teaching foreign language to grown-ups //modern views and research. – 2020. – С. 171.

[3]. Begmatov, K. M. (2023). Development of pedagogical skills of a foreign language teacher through educational technologies. Open Access Repository, 9(10), 218-220.

[4]. Latipov A. The framework of the theory of "development of the second language acquisition" //Интернаука. – 2020. – №. 19-4. – С. 21-23.

[5]. Абдуллаев Ю.Н..Бушуй А.М. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам и зарубежный педагогический опыт. Учебное пособие. Самарканд,2001,130 с. 10.

[6]. Алмазова Н.И. Когнитивные аспекты формирования межкультурной компетенции при обучении иностранному языку в неязыковом вузе: п.Андронкина Н.М. Когнитивно-деятельностный подход к формированию лингвосоциокультурной компетенции обучении немецкому языку студентов языкового вуза. Авторев.дис.док.наук.Спб.:РГПУ,2009.-50с

[7]. <https://parliament.gov.uz/articles/2038>

[8]. <https://sg.docworkspace.com/d/sIMSJlJ2OAUOM2bgG?sa=601.1123>

[9]. <https://youtu.be/FDyMLp4qIAk?si=9HxJBzlfUgUzYi8F>